

O'ZBEK VA JAHON XALQLARI TOPISHMOQLARINING G'OYAVIY

O'XSHASHLIKLARI HAMDA FARQLI JIHATLARI

S.U.Akramova¹ 1. O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti, Samarqand,
O'zbekiston

Akramova S.U.

O'zbekiston-
Finlandiya
Pedagogika
instituti
magistranti,
Samarqand,
O'zbekiston
sitora.utkirovna21.uz
08@gmail.com

Annotatsiya: Maqlada topishmoq janrining o'ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish tarixi, tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. O'zbek va jahon xalqlari topishmoqlarining badiiy-g'oyaviy jihatdan o'xshashliklari hamda farqli tomonlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: topishmoq, tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, hasharotlar, o'simlik, metafora, obraz, tematika.

Аннотация: В статье рассматриваются уникальные особенности жанра загадки, его история и воспитательное значение. Сравнительно анализируются художественно-идеологические сходства и различия загадок узбекского и мировых народов.

Ключевые слова: загадка, природные явления, животные, птицы, насекомые, растение, метафора, образ, тематика.

Abstract: The article discusses the unique features of the riddle genre, its history, and its educational significance. The artistic and ideological similarities and differences of the riddles of Uzbek and world nations are comparatively analyzed.

Keywords: riddle, natural phenomena, animals, birds, insects, plants, metaphor, image, subjects.

Topishmoqlar qadimdan xalq tomonidan faol ishlatalidigan va sevimli janrlaridan biri bo'lib, ular asosan, xalqlarning turmush tarzi, urf-odat va an'analari, dunyoqarashlarini ifodalaydi. Shuning uchun aksar topishmoqlar tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, hasharotlar va o'simliklar haqida aytilgan. Topishmoqlarning qadimdan mavjudligini hisobga olsak, ularning badiiy va lirik tuzilishi, hatto hozirgi globallashuv zamonizda ham nafaqat dolzarb, balki qiziqarliligini yo'qotmaganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Eng qadimgi xalqlarda o'g'il bolalarni nasl davom ettiruvchisi sifatida ovchilar safiga qo'shish marosimlari o'tkazilgan. Voyaga yetganlik sinovi sifatida, yigitlar o'z jismoniy kuchini, epchilligini, jasoratini – ulkan yirtqich hayvonni o'ldirish va og'riqqa chidash bilan isbotlagan. Bilimlarini esa topishmoq topish bilan. Ko'rinish turibdiki, topishmoqlar odamning bilimlari ko'rsatkichi va dalili hisoblangan. Qadimgi yunonlar va nemislarda esa topishmoq topish jang san'atiga teng bo'lган. Afsonalarda qayd etilishicha, topishmoqlarni topa olmaganlar o'limga hukm qilingan. Rus xalqining to'ylarida ham XIX asrgacha topishmoq topish to'yning ajralmas qismi bo'lган. Kelin dugonalari kuyovga va uning do'stiga qiyin topishmoq berishgan, agar topa olmasa, kulbaga – kelinning oldiga kiritishmagan. Qadimgi Yunonistonda esa topishmoq musobaqalari simpoziumlarda intellektual o'yin-kulgu sifatida mashhur bo'lган. Bu madaniyatning asosiy manbai Afinadir.

O‘zbek xalqida ham juda qadimda topishmoq aytish rasm-rusumlari bo‘lgan. Ota-bobolarimiz kundalik mehnatdan bo‘saganidan so‘ng, kechalari topishmoq aytishar ekan, deydi folklorshunos Zubayda Husainova.

Topishmoq shaklan nasriy va nazmiy bo‘lib, unda shaxs, narsa yoki hodisalar obrazli tasvirlanadi. Topishmoq aytuvchi, avval obyektni tanlab oladi, uning belgilarini sanab, jumboqli tarzda topishmoq tuzadi. Topishmoqda berilgan belgilarga qarab, nima haqida gap ketayotganini topish talab etiladi. “Haqiqiy topishmoq javob beruvchini, uning ustida ishlashga, fikrlashga chorlaydi. Zamonaviy odamlar ushbu hurmatga sazovor janr haqida qanday fikrda bo‘lishidan qat’i nazar, topishmoqlar juda jiddiy ishdir, ayniqsa, afsonaviy fantaziya olamida”, deb fikr bildiradi AQSh folkloristi Stefen D.Vinik.

Janrning nomiga e’tibor bersak, “top” so‘zidagi o‘yla, izla, axtar ma’nolarini ifoda etadi. – ish qo‘srimchasi qo‘silganda, uning vazifasi aniqlashadi. “moq” harakat nomi qo‘srimchasi qo‘silgandan keyin “qo‘lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi. [4; 77,78]

Tabiat hodisalari, osmon, yer va suv haqidagi topishmoqlar, inson o‘zi ko‘ra oladigan, eshita oladigan va sezaladigan hodisalar bo‘lganligi sabab, qadimdan har qanday xalqning samimiy qiziqishini egallagan.

Oyog‘i yo‘q, qochadi,

Qanoti yo‘q, uchadi.

Topishmoqda bulutga aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’rif berilgan, hajm jihatdan qisqa va ixcham, hech qanday metafora qo‘llanmagan. Bulutning osmonda erkin suzib yurishini “oyog‘i yo‘q, qochadi” deb, osmonda bo‘lishiga qaramay, uning qulab tushmaslik qobiliyatini esa “qanoti yo‘q, uchadi” deb ta’riflangan.

Бегут кудрявые Барашки

У светра в упражске...

(Jingalak qo‘zilar yugurib ketishyapti

Shamoldagi jamoada)

Ushbu rus xalq topishmog‘i hajm jihatdan qisqa va ixcham bo‘lib, bulutga nisbatan metafora ishlatilgan. Oppoq jingalak qo‘zichoqlarni ko‘z oldimizga keltiraylik. Bir poda jingalak oppoq qo‘zichoqlar, shubhasiz, osmonda suzib yurgan bulutlarni eslatgani uchun, “jingalak qo‘zilar yugurib ketishyapti” deb ta’rif berilgan. Bulutlar shamol oqimi bo‘ylab suzishi hech kimga sir emas, bulutlarning zich va ko‘pligidek. Shuning uchun shamolda jamoa bo‘lib yugurib ketishyapti, deb ta’riflangan.

I can fly but I have no wings

I am in the sky but not a bird

I can cry but I have no eyes

Wherever I go darkness follows me

What am I?

(Men ucha olaman, lekin qanotim yo‘q

Men osmondaman, lekin qush emasman
 Yig‘lay olaman, lekin ko‘zlarim yo‘q
 Qayerga borsam, zulmat meni kuzatib boradi
 Men nimaman?)

Ushbu ingliz xalq topishmog‘i bulut nomidan aytilgan bo‘lib, ixcham tuzilgan, bulutga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’rif berilgan. Bulutlarning osmonda qanotlarsiz ham suza olishi, qanotlarim bo‘lmasa ham ucha olaman, qush emasman, lekin osmonlarda parvoz qilaman deya ta’riflangan. Topishmoqdagi yig‘lay olish qobiliyati esa yomg‘ir haqidagi tasavvurdir. Bulutlar bor joyda qorong‘ulik bo‘lgani sabab, zulmat meni kuzatib boradi, deyilgan.

Tabiatning ko‘zga ko‘rinadigan, seziladigan olamini tasvirlash uchun, topishmoqlar, asosan, insonga tanish bo‘lgan suratlardan obraz yaratadi. Mavhum tavsiyalar berilmaydi, obrazlar aniq ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

Daryo, oqim, ariqlar haqidagi topishmoqlar, asosan, suv bilan bog‘liq bo‘lib, asosiy beligisi suv hisoblanadi.

Ketaveradi, ketaveradi,

Orqasiga qaramaydi.

Topishmoq qisqa va ixcham tuzilgan. Daryodagi suv hech qachon to‘xtamasligi sababli, u faqat “ketaveradi”. Daryo oqimi o‘ngga, chapga yoki qaramaqarshi yo‘nalishga oqmagasligi tufayli, daryo hech qachon “orqaga qaramaydi”.

I have a bed, but I do not sleep.

I have a mouth, but I don’t eat.

You hear me whisper, but I never talk.

You can see me run, I never walk.

What am I?

(Menda to‘shak bor, lekin uxlamayman.

Mening og‘zim bor, lekin men ovqat yemayman.

Siz mening shivirayotganimni eshitasiz, lekin men hech qachon gapirmayman.

Yugurayotganimni ko‘rasiz, men hech qachon yurmayman. Men nimaman?)

Daryo haqidagi ingliz xalq topishmog‘i ixcham, nasriy savol tarzida tuzilgan bo‘lib, metaforalar qo‘llangan. Daryoning suv ostidagi yerni to‘shak, yotoq deb tasavvur qilaylik, ammo oqayotgan suvning uxlashga vaqt yo‘q. Daryodagi suvning oqib tushadigan joyini o‘giz deb tasavvur qilamiz va u yeya olmaydi. Daryodagi suv oqayotgan paytda o‘ziga xos tovushlar chiqaradi va go‘yo shamol pichirlagandek ovozlarni eshitish mumkin. Daryoning oqishi yurishdan ko‘ra ko‘proq yugurishni eslatadi.

여름에는 들어가도 겨울에는 못 들어가는 것은?

(Yozda nima yurishi mumkin, lekin qishda emas?)

Ushbu koreys xalq topishmog‘i hajm jihatdan qisqa va ixcham hamda savol tarzida tuzilgan. Daryo faqat yozda, ya’ni issiq kunlarda oqishi

mumkinligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Janubiy Koreyada qish kunlari nisbatan sovuq bo'lgani sababli, daryo va ko'llar qishda, shubhasiz, muzlab qoladi.

Topishmoq oddiy tuzilsa ham, murakkab tuzilsa ham o'z jozibasini yo'qotmaydi. Aksincha, xalqning ziyrakligi, donoligi va topqirligi kishini hayratga soladi. Ko'pincha maqolni ma'noga boy deb hisoblaymiz, ammo topishmoq va tez aytishlar tarkibida ham metaforik ma'noni uchratishimiz mumkin. Maqollar insonni to'g'rilikka yo'naltiradi, topishmoqlar esa aqlni charxlaydi. Shuning uchun ham, topishmoq topish qadimdan xalq hayotining uzilmas bo'lagi bo'lib kelgan.

O'simliklar to'g'risidagi topishmoqlar ham tabiat hodisalari kabi tavsiflanadi. O'zbek xalq topishmoqlarida o'simliklar orasida eng ko'p uchraydigan o'simlik barcha biladigan, taniqli daraxtlardir: anor, yong'oq, jiyda. Mevali daraxtlar haqida kamroq, ayrimlari turlari haqida esa deyarli mavjud emas.

Kichkina tandircha,

Ichi to 'la kulcha. (yong'oq)

Qopcha, Qopcha ichida uncha,

Uncha ichida ustuncha. (jiyda)

Kichkina dekcha,

Ichi to 'la mixcha. (anor)

Rus xalq topishmoqlari orasida ham yong'oq haqidagi topishmoqlar nisbatan ko'p uchraydi. Bundan tashqari, daraxt barglari, qayin, qo'zinqorin ham taniqli. Eng kam uchraydigan turi esa, bizning xalqimizdan farqli o'laroq, mevali daraxtlar va mevalardir. Masalan, olma haqidagi topishmoq kam bo'lib, asosan, diniy qarashlar bilan bog'liq.

Летают, кружатся, на землю ложатся,

С земли не встают и тут изгнивают.

(uchishadi, aylanishadi, yerga yotishadi,

yerdan turmaydilar va keyin chiriydilar). (barglar)

Летом мохнатенька, зимой сучковатенька.

(Yozda momiq, qishda tugun). (qayin)

Маленький, удаленький сквозь землю прошел,

красную шапочку нашел.

(Kichik, jasur er yuzidan o'tdi,

qizil shapka topdi)(qo'zinqorin).

Fransuz xalqi esa atirgul va qo'zinqorinlarni nisbatan afzal ko'rishadi.

Fransuzlar topishmoqlarida atirgulga go'zal ta'riflar berishi hech kimga sir emas, chunki ular azaldan romantik xalq deb tanilgan va atirgul romantika belgisi hisoblanadi.

Le matin, les perles scintillaient,

Toute l'herbe était rentrée.

Et allons les chercher dans l'après-midi

Nous cherchons, nous cherchons - nous ne trouverons pas (Rosa.)

(Ertalab marvarid porladi,

Hamma o'tlar kirib keldi.

Va ularni tushdan keyin tering
 Izlaymiz, qidiramiz – topolmaymiz. (atirgul)
 Caché derrière une souche
 Chapeau de côté.
Qui s'approche
S'incline bas. (Gib)
 (Bir dumning orqasiga yashirinadi
 Shlyapa chetga,
 kimdir yaqinlashganda
 chuqur ta'zim qiladi) (qo'ziqorin)

Baliqlar, sudralib yuruvchilar va hasharotlar haqida topishmoq barcha xalqlarda qushlar va hayvonlarga nisbatan kamroq. Mavjud topishmoqlar, asosan, metaforik shaklda bo'lib, baliqlarning suzishi, qurbaqa va qo'ng'izlarning yovuz obrazda tasvirlanishi va chumoli, asalarilarning mehnatkashligi gavdalantiriladi. Qushlar haqidagi topishmoqlar orasida uyda boqiladiganlar parrandalardan tovuq va xo'rozlar, erkin yashaydigan qushlardan esa qaldirg'och va zag'izg'onlar e'tiborni tortadi.

Zuv-zuv borag'ay,
Tomdan qarag'ay.
Cho 'p, loy cho 'qig'ay,
Savat to 'qig'ay.

Qaldirg'ochlar o'zlarining tinim bilan uchishlari, chug'urlashlari bilan mashhurdir. Cho'p va loy to'plab, bahor kelishi bilan uy qura boshlashadi. O'zbek xalqi qaldirg'ochlarni yaxshilik va mo'l-ko'ichilik alomati deb bilishadi.

Rus xalqi qaldirg'ochni bahor elchisi deb yaxshi ko'rishadi, ayniqsa, dehqonlar ularni iliqlik bilan tilga olishadi. Quyidagi topishmoqda qaldirg'ochning uzoq yo'l bosib kelib, yangidan hayot boshlash uchun uy qurishi tavsiflangan:

Прилетает к нам с теплом,
Путь проделав длинный,
Лепит домик под окном
Из травы и глины.
 (U bizga iliqlik bilan keladi,
 Uzoq yo'l bosib,
 Deraza ostidagi uyni
 o't va loydan haykalga soladi).

Britaniya xalqi ham bahor yaqinlashishi bilan qaldirg'ochlarning uchib kelishimi intiq bo'lib kutishadi. Qaldirg'och ular uchun issiq, quyoshli va quvonchli kunlar belgisidir. Britaniyaliklarning fikricha, hozirgi modernizatsiyalashgan zamonda uyingiz tomi yoki derazasi ostida ajoyib qushchalar chug'urlashib uy qurishi o'zgacha quvonch va rohat baxsh etadi.

What bird can be heard at mealtimes?
 (Ovqatlanish vaqtida qaysi qushni eshitish mumkin?)

Xalq topishmoqlari orasida keng tarqalgan mavzulardan biri hayvonlar to‘g‘risida. Hayvonlar haqida topishmoqlarni tuzish biroz qiyin, chunki ularni birlashtirib turadigan belgilarni sanash murakkabdir.

*Dalama-dala qidiradi,
Qo ‘y bilan echki oh uradi. (bo ‘ri)
Asalni xush ko ‘radi,
Qishda tushlar ko ‘radi.
Bahorgacha uxlaydi
Barmoqlarin so ‘radi. (Ayiq)*

Bo‘rilarni tasvirlash uchun urg‘u, asosan, bo‘rining yirtqich tabiatiga beriladi. Ayiqlar esa tinchlik ramzi sifatida gavdalanadi. Rus xalq topishmoqlarida ham bunday o‘xshatishlarni uchratish mumkin.

*Спят всю зиму напролет,
Лапу нехотя сосет
Любит мед, малину, шишки,
Это старый добрый...(медведь)
Butun qish davomida uxlaydi
Panjasini istamay so‘radi
Asal, malina, konusni yaxshi ko‘radi,
Bu yaxshi eski ... (ayiq)
Поздно ночью зверь лесной
Громко воет под сосной.(Волк)
Kechqurun o‘rmon hayvoni
Qarag‘ay tagida baland ovozda uvillaydi.(Bo‘ri)*

Bunday o‘xshatishni qozoq xalq topishmoqlarida ham kuzatish mumkin. Aksariyat topishmoqlar bolalarga mo‘ljallanadi, shuning uchun hayvonlar, tabiat qonunlaridan kelib chiqqan holda ta’riflanadi.

*Аузы бейне шалғы орақ,
Шөп емес, бірақ мал орадыю(Қасқыр) [5; 84]
Uning og‘zi o‘tloq o‘roqdek,
O‘t emas, balki mol o‘radi. (Bo‘ri)
Қыс бойына жатады,
Тәтті ұйқыға батады. (Аю)
Butun qish davomida,
U shirin uyquga ketadi. (Ayiq)*

Ayimlar topishmoqlar oddiy xalq tomonidan yaratilgan va topishmoq tabiatini ham shunga xos deb bilishadi, topishmoqning tuzilishi va ma’nosi esa oddiy va boy insonlar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi deb hisoblashadi. Bir qarashda haqiqatdan ham shunday ko‘rinadi. Ammo topishmoq tematikasiga chuqurroq nazar tashlasak, oddiy dehqonning turmush tarzi shaharda yashovchi insonga ham notanish emas. Shaharlik ham qushlar va hasharotlar haqida yetarlicha biladi, oddiy dehqon esa ularning turlarini sanab berishi mumkin. Oddiy dehqonda taassurot uyg‘otmaydigan kapalak esa, shaharlikni hayratga soladi. Topishmoqlar mana shu qarama-qarshiliklarni to‘g‘irlaydi va turli

qiziqlashlarni bir-biri bilan mujassamlashtiradi. Yuqorida keltirilgan topishmoqlar kabi, kim ayiqning qishda shirin uyquga ketishini bilmaydi? Qaldirg‘och bahor elchisi ekanligini yoki barchaning jig‘iga tegadigan zag‘izg‘onnichi? Shunday ekan, xalq topishmoqlarini ayrimlar tushunmaydi, degan xulosaga qo‘shilish qiyin.

Yuqorida keltirilgan topishmoqlarga asoslanib, turli xalqlarda turlicha an’ana, urf-odat, til, din, dunyoqarash bo‘lishiga qaramay, nafaqat xalqlar orasidagi farqlarni, balki ular orasidagi o‘xshashliklarni ham ko‘rish mumkin. Bunday topishmoqlar xalqlar aro qiziqlashlarni birlashtirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon xalq topishmoqlarini o‘rganish va ularni tahlil qilish ilmiy jihatdan qiziqarlidir. Chunki har bir xalqning topishmog‘ini tahlil qilish jarayonida, nafaqat ushbu xalqning madaniyati va urf-odatlari, balki insonlarning tafakkuri va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini tushunishimiz mumkin.

Umuman olganda, jahon xalq og‘zaki ijodi topishmoqlarini ilmiy jihatdan o‘rganish insoniyat madaniyati, tafakkur taraqqiyoti va turli xalqlar merosini chuqur anglash imkonini beradi. Bu bizning dunyo va inson tabiatini haqidagi bilimimizga o‘z hissasini qo‘sishda davom etadigan qiziqarli tadqiqot sohasidir.

Foydalilanlgan adabiyotlar

1. Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. – T.: “Fan”, 1996. – 153-b.
2. Митрофанова В.В. Русские народные загадки. – Ленинград: “Наука”, 1991. – 179-с.
3. Митрофанова В.В. Загадки. – Ленинград: “Наука”, 1988. – 354-с.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2010. – 234
5. Бабалар сөзи: Жүзтомдық. – Астана: “Фолиант”, 2010. Т.64: “Жұмбактар”. – 432-b.
6. www.wikipedia.uz
7. www.ziyouz.com
8. stevewinick.com/riddles.
9. www.naver.com.
10. www.riddles.net.